



MUSTAMLAKACHILIK DAVRIDAGI DASTLABKI SHAKLLANGAN JADIDA AYOLLARIMIZNING QARASHLARI VA FAOLIYATLARI

Dilshod Xaydarov

ISFT (International school of finance technology and science) instituti

Samarqand filiali dotsenti

Eldor Avg'onov

ISFT (International school of finance technology and science) instituti

Samarqand filiali magistranti

Annotatsiya:

Mazkur maqolada Turkistonda mustamlakachilik davrida shakllangan jadid ayollarining qarashlari va faoliyati ijtimoiy-tarixiy kontekstda tahlil qilinadi. Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuzaga kelgan murakkab siyosiy va madaniy ziddiyatlar mahsuli sifatida talqin etilib, uning asosiy maqsadi jamiyatni ma'rifat asosida yangilash, milliy ongini uyg'otish va taraqqiy etgan jamiyat barpo etishdan iborat ekanligi yoritiladi. Tadqiqotda jadid ayollarining ta'lim, matbuot va madaniy islohotlar jarayonidagi o'rni alohida e'tibor markaziga olinadi. Shuningdek, ayollarning savodxonligini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini kuchaytirish va gender tengligini ta'minlash yo'lidagi intilishlari jadidchilik g'oyalarining ajralmas qismi sifatida talqin etiladi. Jadid ayollarining qarashlari nafaqat diniy-ma'rifiy asoslarda, balki zamonaviylik, milliy uyg'onish va ijtimoiy adolat tamoyillariga tayangan holda shakllangani ko'rsatib beriladi. Maqolada matbuot nashrlari, xususan ayollar uchun tashkil etilgan jurnallar orqali ilgari surilgan g'oyalar, ularning jamiyat ongiga ta'siri ham tahlil qilinadi.



Kalit so‘zlar: jadidchilik, jadid ayollari, ma’rifatparvarlik, ayollar ta’limi, gender tengligi, Turkiston, mustamlakachilik davri, milliy uyg‘onish, matbuot, ijtimoiy islohotlar

Turkistondagi jadidchilik harakati bu bir tasodif xodisa bo’lmay, balki hayotimizdagi ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar maxsuldir. XIX asrning boshlaridan Buxorodagi ma’rifatparvar musulmon ruhoniylari va ziyolilari orasida madrasa va maktablar tizimiga hamda islom diniga kirib qolgan bid’atlarni isloh qilish fikri paydo bo’la boshlaydi. Shunday islohot tarafdorlarini jadidchilar, ya’ni yangilik tarafdorlari deb atay boshlaydilar. Jadidizm (arabcha “jadid” so’zidan olingan bo’lib “yangi” degan ma’noni bildiradi)¹. O’sha davrlardan boshlab bunga qarama-qarshi turgan oqim, ya’ni feodal-o’rta asrchilik, diniy fanatizm ruhida bo’lgan kishilarni esa qadimistlar, deb atay boshladilar. XIX asr oxiri-XX asrning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida Markaziy Osiyoning ko’p joylarida jadidchilik harakati kuchayib ketdi. Bu harakat mavjud jamiyatning ijtimoiy-madaniy asoslarini qayta qurishga qaratilgani sababli eski tuzum, eski turmush, eski maktab tarafdorlarining kuchli qarshiligiga duch keldi. Bu qarshi kuch vakillari qadim yo qadimchilar deb atalgan bo’lsa, yangi hayot shabadalarini olib kelishga uringan kishilar esa jadid yoki jadidchilar degan nom oldilar. Shu tarzda asrimiz boshlarida jadidlar va jadidchilik harakati yuzaga keldi. Turkiston xalqining boy ijtimoiy-falsafiy, diniy-axloqiy, madaniy taraqqiyotida XIX asrning birinchi choragidagi davr o’zining nihoyatda sermazmun va inqilobiy suronliligi, g’oyaviy-nazariy va mafkuraviy harakat shakllarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bu holat ijtimoiy taraqqiyotning o’ziga xos yo’nalishi edi. Turkiston XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan bosib olindi va mustamlakaga aylantirildi. Bu jarayon o’lkadagi maxalliy xalqning ongiga o’z ta’sirini o’tkaza boshladi. Natijada ular Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun

¹ O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi



kurash olib borishga milliy-ozodlik harakati uchun zamin tayyorlashga muvaffak bo'ldilar. Yerli xalqlar orasida mustamlakachilikka qarshi ma'rifatchilik g'oyalari tarkala boshladi, yangi ta'lim-tarbiya shaxobchalari, yangi maktab, maorif, madaniy targibot, jadidchilik harakati rivoj topdi. Mana shunday sharoitda Turkistonda ko'plab ma'rifatchilar yetishib chiqdi. Turkistonda jadidchilik harakati uch soha orqali faoliyat ko'rsatdi. Bular: maorif (yangicha maktablar ochish, ta'lim usulini yangilash), san'at (badiiy adabiyot, teatr) matbuot. (gazeta jurnallar) Asosiy maqsad millatni, bir tomondan, ilm ma'rifatli qilish bo'lsa, ikkinchi tomondan uning axloqiy darajasini yuksaltirish va ana shu ikki jihatning uyg'unlashuvi natijasida, uzligini, o'z qadrini anglagan bilimli shaxsni voyaga yetkazish edi. Turkiston jadidchilari tomonidan ana shu maqsadni amalga oshirish yo'lida katta ishlar qilindi. Turkistonda jadidchilik harakatining yuzaga kelishida tarixiy sharoit bilan birga, XIX asrning so'nggi choragida uyg'ongan ma'rifatchilik, ma'rifatparvarlik qarashlarining ta'siri katta bo'ldi. XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi Turkistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga e'tibor bersak, marifatparvarlik mafkurasi demokratik va milliy-vatanparvarlik harakatlarining g'oyaviy mazmunini tashkil etganligini ko'ramiz. Albatta bu vazifalarni amalga oshirishda an'anaviy islom dini, shariat asoslari va hadislar ham o'z ta'sir kuchini saqlab turgan ta'limotga suyanadilar. Jadidchilar o'zlarining ilg'or g'oyalarini Xalq o'rtasida tarqatish uchun milliy matbaachilikni rivojlantirish orqali, zamonaviy ta'lim sistemasini joriy qilish, ilg'or g'arb mamlakatlariga mahalliy yoshlarni o'qishga jo'natish yo'li bilan amalga oshirishga harakat qildilar. Turkiston ma'rifatchiligining dastlabki bosqichlarida axloqiy g'oyalar asosan badiiy va didaktik shakllarda o'z aksini topdi. Shu jihatdan o'zbek, va tojik xalqlarining mutafakkirlari Ahmad Donishning (1827 - 1897) «Navodir ul - vaqoe» asari diqqatga sazovor. Ahmad Donish o'z asarlarida Buxoro amirligi davlat tuzumini Rossiya davlat tuzumi bilan solishtirib, uni isloh qilish



lozimligini ta'kidlaydi². Ayni paytda, an'anaviy axloqiy tushunchalar bilan fikr yuritar ekan, u adolatni ham podsho - hukmdor shaxsiga, ham davlat tizimiga xos fazilat sifatida olib qaraydi. Agar hukmdor adolatli siyosat yurgizsa, mamlakat hayotining hamma sohasi uchun adolatni mezon qilib olsa, san'atning gullab yashnashiga yo'l ochib bersa – xalq hayoti farovon bo'ladi, fazilatlar kuchayib, illatlar zaiflashadi.

Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma'rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ko'pchilikdagi ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani – bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, demakdir³. Fanlar chuqur va keng rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bilim va ilmga intilgan har bir kishi, talaba, fan namoyondasi ilmning, ya'ni ma'rifatning ma'lum sohasinigina egallashga erisha oladi. Masalan, kimyoning ma'lum sohasini, xuddi shuningdek matematika, fizika, biologiya, medisina va boshqalarning ham ma'lum yo'nalishlarini egallaydilar. Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi. Demak ma'rifat - bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shu mazmunni yoyish quroli, vositasidir. Ma'rifat asosan umumiy va o'rta maxsus bilim beruvchi maktab va o'quv yurtlarida tarqatiladi. Ma'rifat tushunchasi maorif tushunchasidan keng bo'lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari, shakllari va sohalarini o'z ichiga oladi. Jamiyatda ma'rifat, ya'ni bilim ma'rifatparvarlar orqali yoyiladi. Ma'rifatparvar – ma'rifat uchun ko'rashuvchi; ilm, bilim chirog'ini yoquvchi; ma'rifat homiysi va tarafdori demakdir. Insoniyatning bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o'tishi

² Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: O'zMU. 2007. Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti.

³ Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. –T.: O'zMU. 2007.



ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng yetuk, ongli, oq-qorani tanigan, fidoyi, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli kishilari ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanadilar. Ma'rifatparvarlar odatda davr uchun, jamiyatning, mamlakatning, xalqning buguni va kelajagi uchun muhim g'oyalarni ilgari suradilar, shu g'oyalarni amalga oshirish uchun kurash olib boradilar. Shuningdek ma'rifatparvarlarimiz cheklanib qolgan ayollarimizning huquqlarini tiklab, millat kelajagi aynan ayollarni savodli qilish ekanligini tushunib yetishgan va ularni bilimli qilishga kirishishgan hatto, chet davlatlarida o'qib, yanada yaxshi mutaxassis bo'lishlarini ta'minlashgan. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi ona yurtimiz tarixini yoritishda, shuningdek mustamlaka Turkiston sharoitida milliy ma'rifatparvarlikning ahvoli, jadidlar faoliyatida ta'lim, ayollar ta'limi, matbuot masalalarini baholashda tub burilish yasadi. Turkistonda jadidchilik harakati o'z-o'zidan paydo bo'lgani yo'q. Mahalliy ziyolilar, xotin-qiz islohotchilar Chor Rossiyasining musulmon hududlarida ayollarning haqiqiy emansipatsiyasiga uchta yo'l bilan erishish mumkinligiga qat'iy ishonishgan. Ya'ni o'sha davrdagi zamonaviy maktablarda erkaklar va ayollarning ta'limini bosqichma-bosqich takomillashtirish orqali (jadid maktablari misolida), Chor Rossiyasi Buxoro va Xiva hududlarida (1883-1917 yillarda) musulmonlar uchun soni va tarqalishi ortib borayotgan taraqqiyparvar gazeta va jurnallar orqali islohotchilik g'oyalarini musulmon xalqlari o'rtasida targ'ib qilishni maqsad qilishdi. Turkistonda ayollarning zamonaviy ta'lim va ma'rifatparvarlikning ildizlari XIX asrning ikkinchi yarmida ma'rifatparvarlik g'oyalarini modernizatsiya qilish harakati boshlanishi bilan bog'liq. Dastlab Turkiston xalqlari o'rtasidagi islohotchilik harakati, bir tomondan, ularning Chor Rossiyasi hukmronligiga qarshiligi, ikkinchi tomondan, Usmonlilar imperiyasidagi islohotchilik harakatlari bilan tanishish bilan bog'liq edi. Lekin jadidchilik harakati dastlab Volgabo'yi, O'ralbo'yi (Qozon, Ufa), Qrim va Ozarbayjonda boshlanib, keyinchalik dasht viloyatlari va Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi hududlariga tarqaldi. Jadichilik harakati matbuot va



maorif orqali rivojlandi. Matbuot ta'siri nuqtai nazaridan, 1883-1918 yillarda Qrim tatar va rus tillarida ikki tilda nashr etilgan "Tercüman/Perevodchik" (Tarjumon) gazetasi sovet davrigacha Turkistonda mahalliy matbuotning rivojlanishida eng muhim rol o'ynadi. Qrim tatar ma'rifatparvari Ismoil Gaspirinskiy ham 1906 yilda birinchi ayollar jurnali "Alem-i Nisvan" (Ayollar dunyosi)ni tashkil qiladi va qizi Shefika Xonimni unga muharrir etib belgilaydi⁴. Ideaparastlikka singdirilgan deb gumon qilganlar. Jadid ziyolilari, ayniqsa, o'zlarining nutqlarida va faoliyatida musulmon ayollarni ozod qilishga e'tibor qaratdilar, chunki ular gender tengligi va ozodliksiz ularning yangilanish harakati muvaffaqiyatli bo'lmasligini tushunishadi. Bu harakat 1913 yilda Ozarbayjonning Boku shahrida istiqlolchilarning quyidagi maqolasi mahalliy jurnallardan birida o'z aksini topgan: "Kimki o'z xalqini sevsa va uning kelajagi buyuk bo'lishini istasa, o'z ayollarining ma'rifati va tarbiyasi haqida o'ylashi, ozodlik va mustaqillikni tiklashi kerak. Ularning aqli va qobiliyatlarini rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratishi kerak" deb yozadi. Ma'rifatparning bu chaqirig'i 1913 yilda Qrimdagi "Tercüman/Perevodchik" (Tarjumon) gazetasida Hariye Hanim Machabilining muharrirga yo'llagan maktubida yanada ochiqroq o'z aksini topgan: "Bizning huquqlarimiz Qur'onda va payg'ambarning so'zlarida aniq belgilab berilgan. Lekin sizlar (erkaklar), din nomidan bizga zulm qilyapsizlar, shariat (islom qonuni) nomi bilan bizni halok qilyapsizlar. Buning uchun kim azob chekadi va yutqazadi? Yana siz (erkaklar) bo'lasiz"⁵. Adib Xolid o'zining Turkistondagi musulmon istiqlolchilik (jadidchilik) siyosatiga oid mukammal tadqiqotida sovet tuzumidan oldingi davrda jadidlar yozgan asosiy yo'nalishni quyidagicha e'tirof etadi. Jadidlar ayollarga nisbatan katta hamdardlik va o'z mavqeini yaxshilash uchun ajralib turadi. Gaspirinskiyning qizi Shefika Xonim tomonidan Bog'chasaroyda tahrir qilingan "Alem-i Nisvan"

⁴ Женское просвещение // Газета «Туркестан», 7 октября 1922 г. № 11.

⁵ Ismoil G'aspirali. Tarjimon gazetasidagi maqolalar to'plami. – Qozon, 1905.



(“Ayollar dunyosi”) va 1913-1917 yillarda Qozonda chiqqan “Suyum Bike” kabi jurnallar ayollarning yangi nutqlarida ayol ovozi yaratgan edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2005. – B. 112–115.
2. Mahmudova G. Jadidizm va Turkistonda axloqiy-estetik fikr taraqqiyoti // Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. – Toshkent: O‘zMU, 2007. – B. 45–52.
3. Jadid mutafakkirlarining axloqiy qarashlari. – Toshkent: O‘zMU, 2007. – B. 120.
4. Женское просвещение // Газета «Туркестан». – 1922. – 7 октября. – № 11. – С. 3–4.
5. Гаспирали И. Статьи из газеты «Терджиман». – Казань, 1905. – С. 25–30.